

Kosonda yangi mavze qurilmoqda



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
MABLÜBTÝ NÝZMATI

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 9-dekabrdagi farmoniga muvofiq, aholining uy-joy sharoitini yaxshilash maqsadida joylarda “Yangi O'zbekiston” massivlari buniyod etilmoqda.

Prezidentimiz Koson tumanida “Do'stlik” mahalla fuqarolar yig'ini hududida qurilayotgan shunday uylarni borib ko'rdi.

Bu yerda 2022-2026-yillarda 120 ta ko'p qavatli uy qurilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasaları, maktablar, mahalla idorasi, savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchaları, sport majmuasi kabi turli ijtimoiy ob'ektlar barpo etiladi. Ushbu hududda istirohat bog'i va stadion borligi aholiga qulaylik yaratadi.

Joriy yilda 616 ta xonardonli 30 ta uy-joy qurilishi boshlangan.

Davlatimiz rahbari uylarni sifatli qurish, odamlar uchun xamyonbop qilish muhimligini ta'kidladi.

Shu yerning o'zida viloyatda ichimlik suvi ta'minoti va oqova tarmog'ini yaxshilash borasidagi rejalar haqida ma'lumot berildi.



Manba